INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK VA MADANIY UNIVERSALLARI

Dexqonova Adolatxon Yorqinjon Qizi
Ingliz tili va adabiyoti o'qituvchisi
adolatfarhodova06@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23140040

Annotatsiya. Tezis ingliz va o'zbek tillaridagi iboralarda uchraydigan semantik hamda madaniy universallarni qiyosiy-lingvistik yondashuv asosida tahlil qiladi. Hayvon, hissiyot, rang va inson xulqiga oid frazeologizmlar o'rganilib, ularning umumiy hamda milliy o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Natijalar metaforik ifoda orqali til va madaniyatning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, semantik universallar, madaniy universallar, metafora, lingvokulturologiya.

Annotation. The thesis explores semantic and cultural universals in English and Uzbek idioms through a comparative linguistic approach. It identifies similarities and differences in idioms related to animals, emotions, colors, and human behavior. The analysis reveals that despite cultural variations, both languages share universal cognitive patterns in metaphorical expression.

Keywords: phraseological units, semantic universals, cultural universals, metaphor, linguoculturology.

Аннотация. Тезис посвящён исследованию семантических и культурных универсалий английских и узбекских фразеологизмов в сопоставительном аспекте. Анализируются выражения, связанные с животными, эмоциями, цветами и поведением человека. Установлено, что при культурных различиях обе языковые системы отражают общие когнитивные модели метафорического мышления.

Ключевые слова: фразеологические единицы, семантические универсалии, культурные универсалии, метафора, лингвокультурология.

Til inson tafakkuri, hissiyotlari va madaniyatining eng muhim ifodasi hisoblanadi. Har bir tilda xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, qadriyatlari va dunyoqarashi mujassamdir. Shu nuqtai nazardan, frazeologik birliklar tilning milliy ruhini, xalq tafakkurining betakror jihatlarini hamda umumiy insoniy tafakkurning o'xshash tomonlarini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi.[1] Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi globallashuv davrida turli xalqlarning madaniy yaqinlik va farqliliklarini tilda ifodalovchi vositalarni o'rganish muhim masalaga aylangan. Ingliz va o'zbek tillaridagi iboralar — bu ikki xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi boy manbadir. Ularning semantik tuzilishi orqali insoniyat tafakkurining umumiy konseptual modellari, ya'ni semantik va madaniy universallarni aniqlash imkoniyati tug'iladi.

[1]Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiyoti: darslik. – T.: Universitet, 2016.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Asosiy muammosi shundaki, ko'plab ishlar iboralarning milliy o'ziga xos tomonlarini tahlil etish bilan cheklanadi, biroq turli tillarda mavjud bo'lgan umumiy semantik asoslar hali yetarli darajada o'rganilmagan. Masalan, tabiat, hissiyot, hayvonot, vaqt va inson xulqiga oid iboralarda o'xshash ma'no modellari kuzatiladi. Bu esa inson tafakkurining universal semantik mexanizmlarini ochib beradi.[2] Quyidagi maqsadimiz esa ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarda namoyon bo'ladigan semantik va madaniy universallarni aniqlash, ularni konseptual asosda tasniflash hamda til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritishdan iboratdir.

Ba'zi frazeologik birliklar turli tillarda o'xshash shakllarda uchrashi mumkin, bu holat insoniyatga xos umumiy dunyoqarash va hayotiy tajriba bilan izohlanadi. Xususan, somatik komponentli frazeologik birliklar — ya'ni tana a'zolari nomi ishtirok etgan birikmalar — bunday universallikning yaqqol namunasidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab tillarda "bosh/head" elementi aql va tafakkur, "ko'z/eye" elementi idrok va diqqat, "qo'l/hand" esa harakat yoki boshqaruv ma'nolari bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois, somatizmlar deyarli barcha madaniyatlarda o'xshash semantik vazifani bajaradi, chunki inson tanasining funksiyalari har bir jamiyatda bir xil asosiy ahamiyatga ega:[3]

- on the tip of my tongue – tilimning uchida turibdi;
- hold your tongue – tilingni tiy;
- hold your head high – boshingni baland tut;
- shoulder to cry on – suyanadigon yelka(si bor);
- on one's shoulder – yelkasida (zimmasida);
- stand on your own two feet – oyoqqa turmoq(mustaqil holda o'zini rivojlantirmoq);
- have one foot in the grave[4] – bir oyog'i go'rda(qari)[5].

Ingliz va o'zbek frazeologiyasida hayvon obrazi orqali inson xarakteri, xulqi va ijtimoiy xatti-harakatlari ifodalanadi. Har ikkala tilda bu iboralar xalqning qadimiy tajribasidan, kuzatishlaridan kelib chiqqan.[6]

- as busy as a bee – ari kabi mehnatkash;
- as stubborn as a mule – eshakdek qaysar;
- lion-hearted – sher yurak (jasur, mard)

Bu iboralarda hayvon obrazi insoniy fazilatlar bilan bog'lanadi. Universallik shundaki, ikkala madaniyat ham mehnatkashlikni ariga, jasoratni sherga qiyoslaydi. Farqlilik esa ayrim hayvonlarning milliy konnotatsiyasida ko'rinadi: masalan, ingliz tilida 'pig' salbiy ma'noda, o'zbek tilida esa 'it' ko'proq yomon konnotatsiyada ishlatiladi.

- to be on cloud nine – osmonda uchmoq (juda quvonmoq);
- green with envy – hasaddan sarg'aymoq (hasad qilish);
- to have a heavy heart - yuragi ezilmoq (g'amgin bo'lmoq);

Bu toifada ham semantik universallar yaqqol namoyon: g'azab, hasad va quvonchning obrazlari ikki tilda ham o'xshash tarzda ifodalanadi. Farqlilik shundaki, ingliz tilida hissiyot ko'proq tana holati yoki rang orqali beriladi, o'zbek tilida esa yurak, jon, ko'ngil orqali ifodalanadi.

---

[3]D.U.Ashurova, M.R.Galiyeva. Cultural lingvistics. Tashkent – 2019.

[4]Cambridge Dictionary. English idioms and their meanings. — https://dictionary.cambridge.org

[5]Rahmatullayev Sh. O'zbek tili frazeologik lug'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

[6]Mamatov A. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2010.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

– a ray of sunshine – umid nuri (ijobiy o'zgarish);
– black day – qora kun (og'ir, achchiq kun);
– white lie – oq yolg'on (zararsiz yolg'on)

Bu frazeologizmlar ranglar orqali hissiy holatni ifodalaydi. Universallik — qora rang salbiy, oq esa ijobiy ma'noda ishlatiladi.

– to have a heart of stone - yuragi tosh (rahmsiz, sovuqqon);
– to keep one's word - so'zida turmoq (halollik, vafodorlik);
– to make up one's mind[7] – bir qarorga kelmoq (irodaviy qat'iylik)

Bu guruhda umumiylik — axloqiy qadriyatlar, halollik, qat'iylik, rahm-shafqat kabi tushunchalar barcha xalqlarga xosligida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar o'ziga xos milliy madaniyatni ifodalasa-da, ular orasida ko'plab semantik va konseptual universallar mavjud. Insonning mehnatga, hissiyotga, tabiatga va axloqqa munosabati madaniyatlararo o'xshashlikni yuzaga keltiradi. Farqlar esa obraz tanlashda, metaforik asosda va ramziy ma'nolarda ko'zga tashlanadi. Bu holat til va tafakkur o'rtasidagi uzviy aloqani, shuningdek, frazeologik tafakkurning universal mohiyatini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbaalari ro'yxati:

1. D.U.Ashurova, M.R.Galiyeva. Cultural lingvistics. Tashkent – 2019.
2. Cambridge Dictionary. English idioms and their meanings. — https://dictionary.cambridge.org
3. Mamatov A. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2010.
4. Oxford Learner's Dictionaries. Idioms in context. — https://www.oxfordlearnersdictionaries.com
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiyoti: darslik. – T.: Universitet, 2016.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili frazeologik lug'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

[7]Oxford Learner's Dictionaries. Idioms in context. — https://www.oxfordlearnersdictionaries.com

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.